



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**No7**  
**2025**

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menajment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 00.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal





## **BOSH MUHARRIR:**

**UMAROVA H.O'.** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Karimova E'zoza Gapiirjanovna** – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Ibragimov X.I.** – pedagogika fanlari doktori, akademik

**Shoumarov G'.B.** – psixologiya fanlari doktori, akademik

**Umarova H.O'.** – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**Qirg'izboyev A.K.** – Tarix fanlari doktori, professor

**Jamoldinova O.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor

**Sharipov Sh.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – pedagogika fanlari doktori, professor

**Ma'murov B.B.** – pedagogika fanlari doktori, professor

**Madraximova F.R.** – pedagogika fanlari doktori, professor

**Kalonov M.B.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nabiyev D.X.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qo'ldoshev Q.M.** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ikramxanova F.I.** – filologiya fanlari doktori, professor

**Ismagilova F.S.** – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

**Stoyuxina N.Yu.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

**Magauova A.S.** – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

**Rejep O'zyurek** – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

**Wookyu Cha** – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

**Polonnikov A.A.** – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

**Baybayeva M.X.** – pedagogika fanlari doktori, professor

**Muxsiyeva A.T.** – pedagogika fanlari doktori, professor

**Aliyev B.** – falsafa fanlari doktori professor

**G'afurov D.O.** – falsafa fanlari doktori (PhD)

**Shomurodov R.T.** – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayeva F. O.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Jalilova S.X.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Bafayev M.M.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Usmonova D.I.** – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

**Saifnazarov I.** – falsafa fanlari doktori, professor

**Nematov Sh.E.** – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Yuldasheva F.I.** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Doniyorov S. M.** – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri,

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

**Yuldasheva D.B.** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

**Tangriyev A.T.** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

**Ashurov R.R.** – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Panjiyev M.A.** – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

**Xudayberganov N.A.** – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

*Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

*Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan*

*Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

*Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician*

*Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician*

*Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan*

*Qirg'izboyev A.K – Doctor of Historical Sciences, Professor*

*Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Koldoshev K.M. - Doctor of Economic Sciences, Professor*

*Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor*

*Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)*

*Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)*

*Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)*

*Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)*

*Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)*

*Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)*

*Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor*

*Aliyev B. - Doctor of Philosophy, Professor*

*Gafurov D.O. - Doctor of Philosophy (PhD)*

*Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor*

*Mirzayeva F.O. - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service*

*Saifnazarov I. - Doctor of Philosophy, Professor*

*Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)*

*Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor*

*Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor*

*Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers “Yangi Uzbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)*

*Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor*

*Tangriyev A.T. - is a Professor of Toshkent State University of Economics*

*Ashurov R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology*

*Panjiyev M.A - First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region*

*Khudaiberganov N.A. - Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences*

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha; OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y ,№11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y , №10)

- Rayosat qarori (31.10.2024-y , №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y , №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y , №10)

- Rayosat qarori (08.05.2025-y , №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan №C-5669245 reyestr  
raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan  
o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



# MUNDARIJA

HAYOTIY MAZMUNNI MO'LJALGA OLIH TALABALIK DAVRIDA HAYOTIY QADRIYATLARNI BELGILOVCHI MEZON SIFATIDA.....	10
<b>Xayrullaeva Zebiniso Toxirovna</b>	
OITS BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK HOLATI DIAGNOSTIKASI.....	14
<b>Rajabova Umida Ubaydulloyevna</b>	
O'SMIRLARDA YOLG'IZLIK HISSINING IFODALANISHI:IJTIMOY-PSIXOLOGIK TAHLIL.....	20
<b>Yuldasheva Mahliyo Bahtiyorovna</b>	
TALABALAR QAROR QABUL QILISHGA IJOBIY MOTIVATSIYA YARATISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA PEDAGOGIK VOSITALARI.....	27
<b>Rajabova Go'zal Zarifovna</b>	
PSIXIK SALOMATLIKNING O'Z-O'ZINI BAHOLASH MEZONLARI ASOSIDA KASALLIK BILAN BOG'LIQ O'ZGARISHLARI.....	32
<b>Latipova Umida Yusufboyevna</b>	

# TALABALAR QAROR QABUL QILISHGA IJOBIY MOTIVATSIYA YARATISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA PEDAGOGIK VOSITALARI

**Rajabova Go'zal Zarifovna,**

Buxoro davlat pedagogika instituti, Psixologiya kafedrası o'qituvchisi  
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, talabalarning qaror qabul qilishiga ta'sir etuvchi psixologik determinantlar hamda ushbu jarayonda ijobiy motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vositalar nazariy jihatdan o'rganilgan. Bundan tashqari maqolda, ta'lim muhitida ijobiy motivatsiyani shakllantirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan interfaol metodlar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va samarali baholash tizimlarining roli keng qamrovli tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Qaror qabul qilish, ijobiy motivatsiya, psixologik determinantlar, pedagogik vositalar, talabalar, ta'lim muhiti, mustaqillik, interfaol metodlar, emotsional barqarorlik, ichki rag'bat.

**Abstract.** In this article, psychological determinants influencing student decision-making, as well as pedagogical tools serving the formation of positive motivation in this process, are theoretically studied. In addition, the article comprehensively analyzes the role of interactive methods, a personality-oriented approach, and effective assessment systems that can be used to form positive motivation in the educational environment.

**Key words:** Decision-making, positive motivation, psychological determinants, pedagogical tools, students, educational environment, independence, interactive methods, emotional stability, internal motivation..

**Аннотация.** В данной статье теоретически изучены психологические детерминанты, влияющие на принятие решений студентами, а также педагогические средства, служащие формированию положительной мотивации в этом процессе. Кроме того, в статье всесторонне анализируется роль интерактивных методов, личностно-ориентированного подхода и эффективных систем оценки, которые могут быть использованы для формирования положительной мотивации в образовательной среде.

**Ключевые слова:** Принятие решений, положительная мотивация, психологические детерминанты, педагогические средства, студенты, образовательная среда, самостоятельность, интерактивные методы, эмоциональная устойчивость, внутренний стимул.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida talabalar qaror qabul qilishiga ijobiy motivatsiya yaratish masalasi psixologik va pedagogik tadqiqotlarning markazida turibdi. Talabaning mustaqil, ongli va maqsadga yo'naltirilgan qarorlar qabul qilishi nafaqat uning shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bunday qarorlarni shakllantirish uchun esa ta'lim jarayonida talabalarda ichki ishonch, maqsadga yo'naltirilganlik, faol o'quv motivlari va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'otish zarur. Shu nuqtai nazardan, psixologik determinantlar va pedagogik vositalarni uyg'un holda qo'llash orqali o'quvchilarni ongli tanlov va mas'uliyatli fikrlashga yo'naltirish mumkin.

Motivatsiya nazariyalari, xususan, Abraham Maslow, David McClelland va Deci & Ryan tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar, talabalar ehtiyojlarini aniqlash va ularni rag'batlantirish mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Talabaning qaror qabul qilishdagi faolligi ko'pincha uning o'ziga bo'lgan ishonchi, o'qishdagi maqsadlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasiga bog'liq bo'ladi. Psixologik determinantlar sifatida shaxsiy ehtiyojlar, qiziqishlar, ijtimoiy muhit, emotsional holat va shaxsning kognitiv salohiyati alohida e'tiborga loyiq. Shu bois, talaba motivatsiyasini mustahkamlovchi ichki va tashqi omillarni aniqlash va ularga mos metodik yechimlar ishlab chiqish ta'limda muhim strategik yo'nalish sanaladi.

Pedagogik vositalar orqali motivatsiyani shakllantirishda, eng avvalo, o'quv muhitining psixologik qulayligini ta'minlash zarur. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi sog'lom muloqot, faol o'qitish usullari, interfaol mashg'ulotlar, muammoli topshiriqlar va shaxsiy yondashuv motivatsiyaning ko'tarilishiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, rag'batlantirish, baholash va fikr almashuvi orqali talabalarda tanlov imkoniyatlari kengayadi. Qaror qabul qilishga ijobiy motivatsiya berish faqat topshiriq natijalariga bog'liq emas, balki butun o'quv jarayonining ma'noli, foydali va talaba ehtiyojlariga mos bo'lishiga ham bevosita bog'liq.

Tarbiyaviy ta'sirlar ham ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Talabani shaxsiy qadriyatlarini, axloqiy mezonlari va dunyoqarashi uni qanday qarorlar qabul qilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchiga tanlov erkinligi berilishi bilan birga, bu tanlov uchun mas'uliyat hissini singdirish zarur. Bu esa nafaqat bilim berish, balki talabani ichki dunyosi va psixologik ehtiyojlarini hisobga olgan holda tarbiyaviy ta'sirlarni uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bunday holatda qaror qabul qilish jarayoni shaxsiy o'sish, hayotiy rejalashtirish va kasbiy yo'nalishni belgilash kabi muhim hayotiy tanlovlar bilan uyg'unlashadi.

Shunday qilib, talabalar qaror qabul qilishga undovchi ijobiy motivatsiyani yaratish ko'p qirrali psixologik va pedagogik faoliyatni o'z ichiga oladi. Har bir talabani individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularga mos rag'batlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni yo'lga qo'yish orqali bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin. Mazkur mavzuni chuqur o'rganish orqali talaba motivatsiyasini mustahkamlash, ularning qaror qabul qilish malakalarini shakllantirish va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash borasida muhim nazariy va amaliy xulosalarga erishish mumkin bo'ladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalar qaror qabul qilishga bo'lgan ijobiy motivatsiyani shakllantirishda klassik motivatsiya nazariyalaridan biri – Abraham Maslou tomonidan ilgari surilgan ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikriga ko'ra, insonning harakatlariga undovchi asosiy kuch bu ehtiyojlardir va ular muayyan ierarxiya asosida shakllanadi. Maslou ta'lim muhitida o'z-o'zini amalga oshirish ehtiyojiga urg'u bergan bo'lib, bu talabalarni o'z bilim va salohiyatini ro'yobga chiqarishga intilishga undaydi. Shuning uchun ta'limda talabani o'zini foydali his qiladigan, erkin fikrlaydigan va qaror qabul qilishda o'zini ishonchli his etadigan muhitda tarbiyalash zarur bo'ladi.

Deci va Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini belgilash nazariyasi ham talabalar motivatsiyasini tahlil qilishda dolzarb ahamiyatga ega. Bu nazariyada ichki va tashqi motivatsiya farqlanadi. Ichki motivatsiya o'quvchining o'z qiziqishi, qoniqish hissi va bilimga bo'lgan tabiiy intilishi bilan bog'liq bo'lsa, tashqi motivatsiya esa mukofot, tanbeh yoki ijtimoiy bosim orqali shakllanadi. O'qituvchilar aynan ichki motivatsiyani qo'llab-quvvatlovchi metodlarni tanlasa, talabalar mustaqil qaror qabul qilishda ko'proq ishtirok etadilar va bu qarorlar ularning ichki ehtiyojlariga mos bo'ladi.

Boshqa muhim nazariyalardan biri – V. Vroom tomonidan ishlab chiqilgan kutish nazariyasidir. Bu nazariyada inson harakati kutayotgan natijaga erishish ehtimoli va ushbu natijaning uning uchun qadriyat sifatida qanday baholanishiga bog'liq bo'ladi. Ta'lim jarayonida talabani bilim olishi va muvaffaqiyatga erishishi, uni ma'lum bir mukofotga, ya'ni kasbiy yuksalish, o'zini namoyon etish, ijtimoiy tan olinishga olib kelishiga bo'lgan ishonchi, uning qaror qabul qilishdagi motivatsiyasini oshiradi. Shu sababli, pedagoglar har bir o'quvchining natijaga ishonchini mustahkamlovchi individual yondashuvlarni yo'lga qo'yishlari kerak.

Bandura tomonidan ilgari surilgan o'z-o'ziga ishonch (self-efficacy) nazariyasi ham talabalar qaror qabul qilishdagi motivatsion holatlarini chuqur anglashga yordam beradi. Bu nazariyaga ko'ra, insonning biror faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishiga bo'lgan ishonchi uning bu faoliyatga bo'lgan munosabati va undagi ishtirok darajasini belgilaydi. Talabada o'ziga bo'lgan ishonch shakllansa, u qaror qabul qilish jarayonida passiv emas, balki faol subyektga aylanadi. O'qituvchi tomonidan doimiy rag'batlantirish, qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich yengishga yordam berish orqali bu ishonch kuchaytiriladi.

Psixolog Lev Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasi esa o'quvchi qaror qabul qilishida atrof-muhitning va muloqotning muhim rolini ko'rsatadi. Vygotskiyga ko'ra, bilim va motivatsiya insonlararo muloqot orqali shakllanadi. O'quvchi jamoadagi faolligi, o'qituvchi va tengdoshlar bilan fikr almashuvi, mustaqil fikrlashga undovchi savollar orqali o'z qarorlarini asoslashga o'rganadi. Bu esa qaror qabul qilishdagi motivatsiyani tashqi manbalardan ichki rag'batga aylantiradi va o'quvchining ijtimoiy fikrlar bilan mos keluvchi, lekin shaxsiy nuqtai nazarga asoslangan qaror qabul qilishiga imkon yaratadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jerome Brunerning konstruktivistik ta'lim nazariyasiga ko'ra, bilimlar talaba tomonidan faol ishtirok etilgan holda, shaxsiy tajribalar va kontekst asosida shakllanadi. Bu nazariyaga tayangan holda aytish mumkinki, talaba bilimni tayyor holatda emas, balki o'zining aqliy harakati orqali kashf qiladi. Bu esa qaror qabul qilishda ham u o'zining hayotiy tajribasi va bilimlaridan samarali foydalanishini anglatadi. Shuning uchun o'qituvchi faqat axborot beruvchi emas, balki talabani qaror qabul qilish mexanizmini shakllantiruvchi yo'l boshchi rolini o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi ilmiy nazariyalar ta'lim jarayonida talabalar qaror qabul qilishga ijobiy motivatsiyani shakllantirishda psixologik determinantlar va pedagogik vositalar qanday uyg'un ishlashini ko'rsatadi. Har bir nazariya turli jihatlarga urg'u bergani bilan, ularni yagona tizimga birlashtirish orqali kompleks pedagogik strategiyalar ishlab chiqish mumkin. Bunda asosiy maqsad – talabani ichki motivatsiyasini uyg'otish, o'ziga bo'lgan ishonchni kuchaytirish va uni faol, mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Talabalarning qaror qabul qilishida ijobiy motivatsiya shakllanishi ko'plab psixologik omillar va ta'lim muhitidagi pedagogik ta'sirlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Bu jarayonni chuqur tahlil qilgan holda aytish mumkinki, motivatsiya – talabani faoliyatga undovchi ichki va tashqi turtkilarning majmuidir. Ta'limda samarali motivatsiya yaratilmasa, talaba qaror qabul qilishda ishtirok etmaydi yoki passiv pozitsiyani egallaydi. Aynan shu sababli, o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsiy o'sishga rag'batlantiruvchi psixologik yetakchi bo'lishi zarur. O'quv jarayonida talabani shaxs sifatida anglash, uning ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olish, uni qaror qabul qilishda faol subyekt sifatida ko'rishga olib keladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalar motivatsiyasining psixologik determinantlari orasida o'ziga bo'lgan ishonch, avtonomiya ehtiyoji, muvaffaqiyatga erishish istagi, emotsional barqarorlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi jihatlari ajralib turadi. Talabani o'z qaroriga nisbatan ishonchi qanday shakllanishi, u o'z fikrini erkin bayon qila olish-qila olmasligi, harakatlarining oqibatini oldindan tasavvur qila olishi – bularning barchasi qaror qabul qilishdagi faollikni belgilovchi omillardir. Shuning uchun psixologik determinantlar faqat shaxs ichki holati bilan emas, balki o'quvchilar atrofidagi ijtimoiy va akademik muhit bilan ham chambarchas bog'liqdir.

### 1-jadval

#### Talabalarning qaror qabul qilish jarayonida ijobiy motivatsiya shakllanishiga ta'sir etuvchi determinantlar

№	Psixologik determinant (omil)	Baholash mezonini (anketadagi ifoda)	Javob variantlari (ballarda)	O'rtacha ball	Talabalar ulushi (%)
1	O'ziga bo'lgan ishonch	«Men qiyin vaziyatda ham o'zim mustaqil qaror qabul qila olaman.»	1 – Umuman to'g'ri emas; 5 – To'liq to'g'ri	4.3	86%
2	Rag'batga sezuvchanlik	«Meni o'qituvchining ijobiy fikrlari yanada yaxshi qarorlar qabul qilishga undaydi.»	1 – Hech qanday ta'siri yo'q; 5 – Juda katta ta'siri bor	4.1	81%
3	Ichki motivatsiya	«Men o'qishdagi faoliyatimni o'zimning kelajagim uchun muhim deb bilaman.»	1 – Rozi emasman; 5 – To'liq roziman	4.5	90%
4	Mustaqillik darajasi	«Men topshiriqlarni bajarishda ko'pincha o'zim mustaqil qaror qabul qilaman.»	1 – Kamdan-kam hollarda; 5 – Har doim	3.9	78%
5	Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hissi	«Do'stlarim yoki o'qituvchilarim qarorimni qo'llab-quvvatlasa, ishonchliroq harakat qilaman.»	1 – Mutlaqo rozi emasman; 5 – To'liq roziman	4.2	84%
6	Emotsional barqarorlik	«Muammoli vaziyatlarda hissiyotlarim meni chalkashtirib yuboradi.»	1 – To'liq roziman; 5 – Umuman rozi emasman	3.7	74%
7	Pedagogik yondashuvdan mamnunlik	«O'qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlar mening qaror qabul qilish malakamni oshiradi.»	1 – Umuman ta'sir qilmaydi; 5 – Katta ta'sir qiladi	4.4	88%

Yuqoridagi jadval asosida o'tkazilgan psixologik statistik tadqiqot natijalari talabalarning qaror qabul qilish jarayonida ijobiy motivatsiya shakllanishi uchun bir qator muhim psixologik determinantlar va pedagogik vositalarning ahamiyatini ko'rsatadi. Tadqiqot ma'lumotlariga qaraganda, talabalar o'zlariga bo'lgan ishonchni yuqori darajada baholaganlari, mustaqil qaror qabul qilishga tayyorlik va ichki motivatsiyaning ta'limdagi faoliyatga ijobiy ta'siri alohida e'tiborga loyiqdir. Bu ko'rsatkichlar talabalar orasida o'z kuchiga va bilimlariga ishonchning yuqoriligini bildiradi, bu esa qaror qabul qilish jarayonini yanada samarali qiladi.

Shuningdek, pedagogik yondashuvning motivatsiyaga ta'siri ham kuchli ekanligi aniqlangan. O'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan samarali pedagogik vositalar talabalar faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim jarayonining sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ham ahamiyati katta, chunki do'stlar va o'qituvchilarning rag'batlari talabalar ishonchini mustahkamlaydi va ularning qarorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotda emotsional barqarorlikning ayrim talabalar uchun muammo bo'lishi aniqlangan, bu holat esa qaror qabul qilish jarayonida stress va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois, ta'lim muhitida talabalar uchun emotsional qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va stressni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Bunda psixologik treninglar, guruh muhokamalari va shaxsiy maslahatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, ijobiy motivatsiyani shakllantirishda psixologik determinantlar va pedagogik vositalar bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi omillar ekanligi ko'rsatildi. Ta'lim jarayonida ushbu omillarni kompleks tarzda hisobga olish va rivojlantirish talabalarning mustaqil va mas'uliyatli qarorlar qabul qilishiga zamin yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning o'quv samaradorligini oshirish va shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu asosda, ta'lim muassasalarida psixologik va pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, talabalar uchun mos motivatsion muhit yaratish hamda ularning ichki va tashqi ehtiyojlarini hisobga olgan holda faoliyat olib borish muhim vazifa hisoblanadi. Bu nafaqat talabalarning bilim olish jarayonini samarali qiladi, balki ularni hayotda to'g'ri va ongli qarorlar qabul qila oladigan shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot natijalari ta'lim muhitida talabalar qaror qabul qilishga ijobiy motivatsiya yaratish jarayonini yanada samarali va tizimli tashkil etishga yordam beradi, ta'lim tizimining sifatini oshirishga qaratilgan samarali strategiyalar ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Pedagogik vositalar orqali motivatsiyani mustahkamlashda o'quv jarayonini maqsadga yo'naltirilgan va individual ehtiyojlarga mos shakllantirish muhim hisoblanadi. Har bir talabaning shaxsiy o'ziga xosligi va tajribasi asosida o'qitish usullarini moslashtirish – ularning qaror qabul qilish jarayoniga bo'lgan ishtiroqini oshiradi. Masalan, interfaol metodlardan foydalanish, muammoli vaziyatlar yaratish, rolli o'yinlar va munozaralar orqali talabalarni fikr bildirishga jalb etish, ularda o'z fikriga nisbatan mas'uliyat tuyg'usini rivojlantiradi. Shu tariqa, o'quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki hayotiy tanlovlar haqida o'ylashga va qarorlar qabul qilishga o'rganadilar.

Shuningdek, baholash jarayoni ham motivatsiyaning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi. Adolatli, shaffof va konstruktiv baholash tizimi talabaning o'z qobiliyatiga ishonchini oshiradi va harakatga undaydi. Faqatgina yakuniy natijani emas, balki jarayondagi harakatlarni ham e'tirof etish, o'quvchining o'zini baholash imkoniyatini yaratish – bu qaror qabul qilishdagi mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Baholash faqat nazorat qilish vositasi bo'lmasligi, balki pedagogik rag'batlantirish manbai bo'lishi kerak.

Ta'lim jarayonida rag'batlantirishning noan'anaviy shakllari ham talabalar motivatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, talabaning fikri hisobga olinishi, uning takliflari va qarorlari e'tiborga olinishi, kichik yutuqlari ochiq tan olinishi motivatsiyani ichki jarayonga aylantiradi. Shuningdek, o'qituvchining samimiy munosabati, ijobiy teskari aloqa va konstruktiv tanqid orqali o'quvchi o'zining qarorlari natijasiga ko'proq mas'uliyat bilan yondashadi. Bunday muhitda o'quvchi passiv bilim oluvchidan faol ishtirokchiga aylanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarning qaror qabul qilish jarayoniga ijobiy motivatsiya yaratish – bu nafaqat psixologik, balki chuqur pedagogik yondashuvni talab qiluvchi murakkab tizimli faoliyatdir. Qaror qabul qilish, odatda, insonning ichki ishonchi, tashqi rag'batlari, ijtimoiy muhitdagi o'rni va shaxsiy maqsadlari bilan uzviy bog'liq. Shu sababli, ta'lim jarayonida motivatsiyani shakllantirishda talabalarni o'zini anglashga, imkoni-

yatlarini baholashga va tanlovlariga mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatish muhim o'rin tutadi. Bu esa, o'z navbatida, ular hayotda mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas'uliyatli va faol qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Psixologik determinantlar sifatida talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi, kognitiv faolligi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi alohida e'tiborga loyiq. Ushbu omillar qaror qabul qilishdagi motivatsion faollikni bevosita belgilaydi. Masalan, o'z kuchiga ishonadigan talaba muammoli vaziyatda ortga chekinmasdan, to'g'ri yo'l topishga harakat qiladi. Aksincha, ichki ishonch yetishmaydigan o'quvchi noaniqlik oldida ikkilanishga moyil bo'ladi. Shuning uchun ta'lim tizimi shunchaki bilim berishdan ko'ra, talabaning ichki ehtiyojlarini aniqlash va ularni maqsadli yo'naltirish orqali ijobiy motivatsiyani uyg'otishi zarur.

Pedagogik vositalar esa psixologik determinantlar bilan uzviy bog'liq holda ishlashi lozim. Interfaol metodlar, muammoli vaziyatlarda fikr yuritish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, rag'batlantirish va tan olish mexanizmlari motivatsiyani mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi tomonidan yaratilgan qulay, ochiq va ishonchli muhit, talabalarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini himoya qilishga undaydi. Bu esa ularning qaror qabul qilishga nisbatan munosabatini ijobiy o'zgartiradi.

Shuningdek, motivatsiyani qo'llab-quvvatlovchi muhim jihatlardan biri bu o'quvchilarning hayotiy maqsadlariga muvofiq ta'lim mazmunini yo'naltirishdir. Talaba o'z o'qishining hayotda foydasi borligini, tanlagan yo'nalishi unga kelajakda muvaffaqiyat keltirishini anglab etsa, u qaror qabul qilish jarayonida ko'proq ishtirok etadi. Mazmunli o'qitish va real hayot bilan bog'liq topshiriqlar orqali o'quvchilar o'zlarini haqiqiy voqealarning ishtirokchisi sifatida his qilishadi. Bu holat esa motivatsiyaning ichki tabiatini kuchaytiradi.

Yana bir muhim xulosa shundaki, motivatsiya faqat yakka shaxsga taalluqli holat emas, balki jamoaviy va tizimli yondashuv orqali kuchaytiriladi. O'qituvchi, guruhdoshlar va ota-onalar o'rtasidagi uzviy hamkorlik, o'quvchilarning ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi ham qaror qabul qilishdagi ishtirokini oshiradi. Bu holatda motivatsiya tashqi rag'batdan ichki ehtiyojga aylanishi mumkin, bu esa talabalarni mustahkam maqsadlarga yo'naltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, talabalar qaror qabul qilishga ijobiy motivatsiya yaratishning muvaffaqiyati – psixologik determinantlar va pedagogik vositalarning uyg'un ishlashiga bog'liq. Har bir talaba noyob psixologik tuzilishga ega bo'lgan shaxs sifatida qaralishi kerak. Ularning ehtiyojlarini aniqlash, salohiyatini ochish va maqsadlariga yo'naltirish orqali qaror qabul qilish malakalarini rivojlantirish mumkin. Ta'limdagi bu yondashuv ularni nafaqat o'quv jarayonida, balki hayotda ham mas'uliyatli va ongli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Петровский А.В. Психология: учебник для студентов высших учебных заведений, обучающихся по педагогическим специальностям / А.В.Петровский, М.Г.Ярошевский. – Москва: Академия, 2008. – 500 с.
2. Поваренков Ю.П. Психологическое содержание профес-сионального становления человека / Ю.П.Поваренков, Ун-т Рос. акад. образя. М.: изд-во УРАО. 2002. – 225 с.
3. Подымова Л.С. Подготовка учителя к инновационной деятельности: Часть 1. – М. М.: Наука. 2005. – 79 с.
4. Qurbonboyev A.N. "O'quv faoliyatida talabalar o'zini o'zi faollashtirishining psixologik xususiyatlari" nomli psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi. 2023. – 82 b.
5. Ребер А. Большой психологический толковый словарь. М., Вече-Аст. 2000. – 287 с.
6. Роджерс Карл. Становление личности. Взгляд на психотерапию. — М. Эксмо-пресс, 2001. – 163 с.
7. Выготский Л.С. Психология развития человека. М.: Смысл: Эксмо, 2005. – 1136 с.
8. Вартанова Э.Г. Постсоветские трансформации СМИ и журналистики. М.: МедиаМир. 2014. – 120 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Sobit Qayumov

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.